MAKTAB O‘QITUVCHILARINING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHINI PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK QO‘LLAB-QUVVATLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Tursinboyev Olimjon Shuxratbek o‘g‘li,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti
tursinboyevolimjon88@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.17911516

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maktab o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishini psixologik va pedagogik jihatdan doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlashning nazariy hamda amaliy asoslari ko‘rib chiqilgan. Unda uzluksizlik, tizimlilik va shaxsga yo‘naltirilganlik tamoyillari asosida pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirish yo‘llari tahlil qilinadi. Olib borilgan xorijiy va mahalliy amaliyotlar tahlili o‘qituvchilarning professional o‘sishini ta’minlashda psixologik ko‘mak, maslahat, diagnostik usullar hamda psixologik treninglarning katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, pedagogik xodimlar kasbiy salohiyatini oshirish maqsadida qo‘llaniladigan hamrohlik texnologiyalarining o‘ziga xos differensial xususiyatlari chuqur ilmiy asosda tadqiq qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *uzluksiz rivojlanish, psixologik qo‘llab-quvvatlash, pedagogika, o‘qituvchi, kompetentlik, trening, diagnostika, maslahat, tizimlilik, tamoyillar.*

Теоретико-методологические основы психолого-педагогической поддержки непрерывного профессионального развития школьных учителей

Турсинбоев Олимжон Шухратбек угли,
Докторант Национального института педагогического мастерства имени А.Авлони

Аннотация: *В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы постоянной психолого-педагогической поддержки профессионального развития школьных учителей. В ней исследуются пути повышения профессиональной компетентности педагогов на основе принципов непрерывности, системности и личностной ориентированности. Анализ зарубежной и отечественной практики показывает, что психологическая помощь, консультации, диагностические методы и психологические тренинги играют важную роль в обеспечении профессионального роста учителей. Кроме того, на глубокой научной основе исследуются специфические дифференциальные особенности технологий сопровождения, применяемых с целью повышения профессионального потенциала педагогических кадров.*

Ключевые слова: *непрерывное развитие, психологическая поддержка, педагогика, учитель, компетентность, тренинг, диагностика, консультация, системность, принципы*

Theoretical and methodological basics of psychological and pedagogical support for continuous professional development of school teachers

Tursinboev Olimzhon Shukhratbek ugli,
Doctoral student of the National Institute of Pedagogical Skills named after A.Avloni

Abstract: *This article studies the theoretical and practical basics of continuous psychological and pedagogical support for the professional development of school teachers. It analyzes the ways for enhancing professional competence of school teachers based on the principles of continuity, systematicity, and personality orientation. Analysis of foreign and national practices shows that psychological support, consultation, diagnostic methods, and psychological trainings ensure their importance in the professional growth of teachers. In addition, the specific differential features of accompanying technologies used to enhance the professional potential of pedagogical staff studies deeply on a scientific basis.*

Keywords: *continuous development, psychological support, pedagogy, teacher, competence, training, diagnostics, consultation, systematization, principles.*

Tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan globallashuv jarayonlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ortida maktab o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanishini samarali tashkil etish ta'lim tizimining eng muhim va strategik yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Zero, ta'lim-tarbiya jarayonining yakuniy natijasi bevosita pedagoglar korpusining professional kompetentligi darajasiga va ushbu jarayon bevosita o'qituvchilarning zamonaviy bilim hamda ko'nikmalarni egallash salohiyatiga bog'liqdir. Shundan kelib chiqib, pedagoglarning kasbiy rivojlanishini psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashga doir izlanishlar bugungi kunda ilmiy-metodologik tadqiqotlarning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu yondashuv pedagoglarga nafaqat o'z kasbiy faoliyatida duch keladigan murakkab muammolarni yechishda yordam beradi, balki ularning shaxsiy salohiyatini to'liq namoyon etishiga ham zamin yaratadi.

Samarali psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirish shaxsga yo'naltirilganlik, uzluksizlik va tizimli yondashuv kabi fundamental tamoyillarga asoslanishi, natijada pedagoglarning kasbiy ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga xizmat qilishi zarur. Milliy va xorijiy ilg'or tajribalarni qiyosiy tahlil qilish ushbu murakkab jarayonning nazariy asoslarini va amaliy boshqaruv mexanizmlarini chuqur o'rganish zarurligini taqozo etadi.

Mazkur maqola pedagog o'qituvchiga yo'naltirilgan an'anaviy yondashuvlardan voz kechib, psixologik-pedagogik hamrohlik masalasini mutlaqo yangi nuqtayi nazardan talqin qiladi: e'tibor markazida maktab o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish vazifasi turadi.

Maktab pedagoglarining uzluksiz kasbiy rivojlanish samaradorligini nazariy jihatdan asoslash uchun psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashga doir dunyoning yetakchi ilmiy maktablari va olimlari tomonidan ilgari surilgan konsepsiyalar keng qamrovli qiyosiy tahlil asosida o'rganildi. Ushbu kompleks tadqiqot pedagogik xodimlarga yo'naltirilgan psixologik hamrohlik mexanizmlarining nazariy-metodologik poydevorini shakllantirishga imkon yaratadi.

Individual psixologiya yo'nalishining asoschisi sifatida tan olingan A.Adler [1] o'z ishlarida qo'llab-quvvatlash insonning zaifligini yengib o'tish, ijtimoiy qiziqishni rivojlantirish va shaxsiy salohiyatni kuchga aylantirishdagi hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi. Bu nuqtayi nazar o'qituvchilarda kasbiy muammolarga qarshi o'zini-o'zi qo'llab-quvvatlash ko'nikmasini shakllantirishda muhimdir.

A.Maslouning [2] gumanistik nazariyasi esa, psixologik yordamning shaxsning o‘z-o‘zini aktualizatsiya qilishga bo‘lgan tug‘ma ehtiyojini qondirishdagi ahamiyatiga e’tibor qaratadi. Ushbu yondashuv pedagogning kasbiy faoliyatda ijodkorlik va rivojlanishga intilishini rag‘batlantirishni asoslaydi.

N.S. Gluxanyuk va Y.I. Kazakova [3,4] tadqiqotlarida qo‘llab-quvvatlashni hayotiy tanlov vaziyatlarida eng optimal qaror qabul qilish usuli sifatida talqin qilishgan. Bu fikr o‘qituvchilarning o‘z kasbiy taqdirini ongli ravishda boshqarish va malaka oshirish yo‘nalishini to‘g‘ri tanlash jarayonlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri taalluqlidir.

M.R. Bityanova [5] esa hamrohlikni ta’lim muvaffaqiyatining zaruriy ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarini yaratuvchi usul sifatida ko‘rsatsa, R.V.Ovcharova [6] uni psixolog faoliyatining aniq kasbiy texnologiyasi darajasiga ko‘taradi.

Nihoyat, E.F. Zeer [7] yondashuvi qo‘llab-quvvatlashni o‘zgaruvchan shaxs bilan birga harakatlanish, uning rivojlanish yo‘llarini o‘z vaqtida aniqlashga qaratilgan metod sifatida belgilaydi. Aynan ushbu ta’rif, maktab o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanishini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish uchun asosiy nazariy-metodologik baza sifatida qabul qilindi.

Maktab o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanishini psixologik-pedagogik hamrohlik orqali institutsional darajada yo‘lga qo‘yish murakkab va ko‘p qirrali jarayon sifatida talqin etiladi. Bu esa, o‘z navbatida, mazkur sohada izchil metodologik yondashuv asosida bir qator ilmiy-amaliy vazifalarni hal etishni talab qiladi.

Birinchidan, ushbu qo‘llab-quvvatlashning asosiy maqsadini aniqlash lozim. Bu, avvalo, ta’lim tizimida hozirgacha shakllangan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini chuqur tahlil qilishni ko‘zda tutadi.

Ikkinchidan, pedagogik xodimlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan psixologik-pedagogik hamrohlikning aniq yo‘nalishlarini belgilash hamda ularni mantiqan izchil tizimga solish muhim vazifani tashkil etadi. Mazkur metodologik masalani hal etish esa milliy va xorijiy ilmiy maktablar doirasida ishlab chiqilgan pedagogik va psixologik nazariy konsepsiyalarni keng ko‘lamda qiyosiy tahlil qilish ehtiyojini keltirib chiqaradi.

Bundan tashqari, uzluksiz kasbiy rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiluvchi psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning mazmuni hamda uning amaliy mexanizmlarini aniqlashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vazifani bajarish nazariya va amaliyot nuqtayi nazaridan mavjud qo‘llab-quvvatlash tizimini chuqur tahlil etishni talab qiladi.

Hozirgi davr ta’lim tizimida “qo‘llab-quvvatlash” tushunchasi, asosan, ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlash sifatida shakllangan. Ushbu yondashuvda psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning obyekti sifatida ta’lim jarayoni namoyon bo‘ladi, uning predmeti esa o‘quvchining dunyo, atrof-muhit (kattalar va tengdoshlari) bilan o‘zaro munosabatlari tizimini ifodalaydi hamda o‘z shaxsi bilan o‘zaro munosabatlari tizimi sifatida rivojlanish holati hisoblanadi [8].

Maktab o‘qituvchilari uzluksiz kasbiy rivojlanishini samarali boshqarish mexanizmlari tizimini shakllantirish bir qator muhim metodologik tamoyillarga asoslanishi talab etiladi.

Shaxsga yo‘naltirilganlik (Individualizatsiya) tamoyili. Ushbu prinsip, birinchi navbatda, qo‘llab-quvvatlash tizimi har bir pedagogning shaxsiy kasbiy ehtiyojlari, individual rivojlanish istiqbollari va mavjud kasbiy kompetensiya darajasini hisobga olgan holda, uning manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirilganini anglatadi. Boshqacha aytganda, qo‘llab-quvvat-

lash yondashuvi pedagogning shaxsiy professional trayektoriyasiga mos bo'lishi lozim.

Uzluksizlik (Kontinuitet) tamoyili. Bu tamoyilga ko'ra, o'qituvchiga uning butun kasbiy faoliyati davomida (faoliyatning turli bosqichlari va yuzaga keladigan qiyinchiliklarda) doimiy, uzluksiz va tizimli yordam kafolatlanishi zarur. Bu yordam pedagogning malaka oshirishdan tortib, to kasbiy inqirozlarni yengib o'tishigacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi.

Tizimlilik tamoyili. Mazkur asosiy tamoyil psixologik-pedagogik hamrohlik jarayonida kompleks va chuqur diagnostika o'tkazishning ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Bunday diagnostik yondashuv pedagogik xodimning kasbiy faoliyati jarayonida yuzaga kelayotgan aniq muammolar va kamchiliklarni aniqlash bilan birga, uning shaxsiy rivojlanishi uchun asos bo'la oladigan mavjud kuchli jihatlari hamda potensial imkoniyatlarini ham ochib beradi. Tizimlilik yondashuvi qo'llab-quvvatlashni tasodifiy harakatlardan mantiqan izchil jarayonga aylantiradi.

Tizimlilik, uzluksizlik va individual yo'naltirilganlik kabi mezonlarning batafsil tahlili va metodologik asoslanishiga tayangan holda, maktab o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanishini psixologik-pedagogik hamrohlik orqali ta'minlash tizimi uchun asosiy, ya'ni fundamental maqsad shakllantiriladi.

Ushbu bosh maqsad pedagogik xodimlarning kasbiy faoliyatdagi me'yoriy talablarga muvofiq samarali rivojlanishini, ularning shaxsiy va professional salohiyatini maksimal darajada ro'yobga chiqarishni ta'minlashdan iboratdir.

Bu fundamental maqsadni amalga oshirish bir qator asosiy vazifalarning belgilanishini taqozo etadi:

Kasbiy zo'riqish va buzilishlarning oldini olish – pedagoglarda kasbiy faoliyatdagi muammolar, inqirozlar va kasbiy kuyish sindromi kabi salbiy holatlarning yuzaga kelishini psixologik profilaktika usullari bilan oldini olish.

Jumladan, kasbiy murakkabliklar (o'quvchilarning o'zlashtirishidagi muammolar bilan ishlash, o'z-o'zini professional baholash, hissiy-irodaviy sferadagi zo'riqishlar) hamda hamkasblar va ota-onalar bilan munosabatlardagi ziddiyatlarni hal etishda amaliy mexanizmlarni ishga tushirish.

Ta'lim-tarbiya jarayonini psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash – maktabdagi o'quv dasturlari va metodikalarni samarali optimallashtirishni anglatadi hamda yangi o'qitish texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish hamda pedagogik innovatsiyalarni samarali integratsiya qilishni ta'minlaydigan qulay psixologik-pedagogik muhit va shart-sharoitlar majmuasini shakllantirish.

Pedagoglarning kasbiy mahoratini rivojlantirish – o'qituvchilarning psixologik-pedagogik kompetensiyasini izchil ravishda yanada yuqori darajaga ko'tarishga qaratilgan jarayondir. Bu ularning o'z professional faoliyatini tanqidiy tahlil qilish hamda o'z-o'zini kasbiy rivojlantirish madaniyatini shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash bo'yicha dastlabki konsepsiyalar asosan o'quvchiga qaratilgan yondashuv (student-centered approach) asosida shakllangan. Bunday yondashuvda asosiy e'tibor shaxsni o'z-o'zini rivojlantirishga va o'z faoliyatini ongli ravishda boshqarishga yo'naltirishga qaratiladi, hamda ijtimoiy muloqotda faol ishtirok etishi uchun sharoitlar yaratiladi.

Biroq, mavjud nazariy tizimlarda pedagogning o'zi ko'proq kuzatuvchi funksiyasida qolib, amaliy qo'llab-quvvatlash tizimining bevosita ta'sir doirasidan chetda tasvirlanadi. O'qituvchi faqatgina ayrim vazifalarda uning psixologik-pedagogik kompetentligini rivojlantirish kabi ikkinchi darajali masala sifatida

tilga olinadi. Bu holat, bizning tadqiqotimizda ilgari surilgan o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishini boshqarish g‘oyasini to‘liq qamrab olmaydi va ushbu masalaga nazariy jihatdan boshqacha yondashuvni talab qiladi.

Ushbu masalani nazariy jihatdan tushunish nuqtayi nazaridan biroz boshqacha yondashuv kuzatiladi. Xorijiy psixologiyada qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati ko‘plab mualliflar tomonidan ta’kidlangan. Masalan, A.Adlerning Individual psixologiya konsepsiyasida qo‘llab-quvvatlash (encouragement) shaxsning **to‘liqsizlik hissini yengib o‘tish** va ijtimoiy qiziqishni shakllantirish uchun **hal qiluvchi omil** sifatida ko‘riladi [9]. Xuddi shunday, A.Maslou o‘z-o‘zini **aktualizatsiya qilish** nazariyasida shaxsning ichki rivojlanish salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun psixologik yordamning zarurligini ta’kidlagan. Bu pedagogning **o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil o‘sish ehtiyojini** qondirishga qaratilgan [2]. Shuning uchun, psixologik qo‘llab-quvvatlash insonning o‘z-o‘zini faollashtirishdagi yetakchi ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq holda zarurdir.

N.S. Gluxanyuk [3] va Y.I.Kazakova [4] tadqiqotlarida psixologik qo‘llab-quvvatlashning mohiyatini hayotiy (kasbiy) tanlov vaziyatlari orqali asoslaydilar. Ular ta’kidlashicha, har qanday tanlash holati (masalan, kasbiy yo‘nalishni o‘zgartirish, yangi malaka oshirish kursini tanlash) o‘z-o‘zidan ko‘plab yechim variantlarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Bu nuqtayi nazardan kelib chiqsak, qo‘llab-quvvatlashning asosiy vazifasi – bu pedagogning rivojlanishini ta’minlash uchun yo‘naltirilgan va maqsadga muvofiq maydonni shakllantirishdan iboratdir. Ushbu yordam mexanizmi subyektga optimal qaror qabul qilishga ko‘maklashadi. Shu bilan birga, jarayonning asosiy tamoyili shundaki, harakatlar uchun javobgarlik to‘liq pedagogning o‘zida qoladi, hamda uning ichki bilish salohiyati va manbalariga tayanish ustuvorligi namoyon bo‘lishi lozim.

M.R. Bityanovaning [5] tadqiqotlarida esa mazkur masalaga o‘ziga xos qarash mavjud. Muallif “hamrohlik” tushunchasini oddiy usul (metod) sifatida talqin qilmay, balki uni ta’lim va professional o‘sishning muvaffaqiyatiga zamin yaratuvchi psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan maxsus ish usuli sifatida aniq [10] belgilaydi.

R.V. Ovcharova [6] o‘zining tadqiqot ishlarida psixologik qo‘llab-quvvatlash psixolog faoliyatining alohida yo‘nalishi sifatida talqin etadi. Muallif uni kasbiy amaliyotning maxsus texnologiyasi bo‘lib, o‘ziga xos mazmun, uslubiy shakllar va metodlarga ega tizim sifatida, shuningdek, vaziyatning konkret talablariga mos holda amalga oshiriladigan jarayon sifatida izohlaydi.

E.F. Zeerning [7] ilmiy izlanishlarida yana bir boshqa yondashuv ko‘zga tashlanadi. U psixologik hamrohlikni o‘zgaruvchan shaxs bilan birga harakatlanish, rivojlanishning mumkin bo‘lgan yo‘llarini o‘z vaqtida aniqlash, yordam va qo‘llab-quvvatlash deb tushunadi. Ushbu ta’rif olib borilayotgan tadqiqotda asosiy sifatida qabul qilinadi va maktab o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanishini psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning nazariy-metodologik asoslarini shakllantirish imkonini beradi [10].

Psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning bosh obyekti ta’lim jarayoni bo‘lsa, uning asosiy predmeti pedagogning rivojlanish darajasidir. Mazkur rivojlanish o‘qituvchining dunyo, atrofdagi insonlar hamda o‘z shaxsi bilan munosabatlar tizimida aks etuvchi murakkab psixologik holat sifatida izohlanadi [10].

Psixologik-pedagogik hamrohlikka asoslangan texnologiyalarning o‘ziga xos differensial xususiyati shundan iboratki, ularning fundamental (asosiy) funksiyasi pedagog kadrlarning individual xususiyatlarini aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan [10]. Shuningdek, bu texnologiyalar pedagog o‘qituvchining professional

salohiyatini faollashtirish va uni o‘quv-amaliy faoliyatda to‘liq namoyon etish uchun zaruriy shart-sharoitlarni ta’minlashga xizmat qiladi. Qo‘shimcha ravishda, bu hamrohlikka asoslangan psixotexnologiyalarning amaliy qo‘llanilishi bevosita maktab jamoasi sharoitida o‘quv-tarbiya jarayonining asosiy subyektlari (pedagoglar, ma’muriy xodimlar, o‘quvchilar va ularning ota-onalari) o‘rtasidagi ijtimoiy-kommunikativ munosabatlarni optimallashtirishga ham qaratilgan.

Zamonaviy ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, samarali psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish bir necha izchil va mantiqiy bosqichlar orqali amalga oshirilishi zarur.

Birinchi bosqich – nazariy poydevorni shakllantirish, ya’ni qo‘llab-quvvatlash modelining nazariy va metodologik asoslarini chuqur yoritishdan iborat.

Ikkinchi bosqich – dastur konsepsiyasini ishlab chiqish, bunda aniqlangan tushuncha va kategoriyalar tizimiga mos ravishda psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning amaliy dasturi ishlab chiqiladi.

Uchinchi bosqich – psixotexnologik loyihalash, ya’ni dasturni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan amaliy texnologiyalar va metodlarni (trening dasturlari, diagnostika vositalari, maslahat berish protokollari va boshqalar) yaratishdan iborat.

Maqolamiz doirasida ishlab chiqilgan psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash konsepsiyasida uchta fundamental tamoyilni shakllantirish muhim shart hisoblanadi.

1. Tadqiqot fokusini qayta yo‘naltirish tamoyili. Ushbu dastlabki tamoyil tadqiqot yondashuvini o‘zgartirishni nazarda tutadi: psixikaning alohida holatlari va yakkama-yakka namoyon bo‘lishlarini o‘rganishdan voz kechib, bevosita pedagogning normal kasbiy rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganishga o‘tish [11] zarur. Bunday o‘zgarishlar pedagog o‘qituvchining kelgusi kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash, uning o‘sish dinamikasini shaxsiy xususiyatlardan kelib chiqib moslashtirish hamda yakunda pedagogning o‘zini yangilash va qayta shakllantirish imkoniyatlarini ochib beruvchi poydevor yaratadi [8].

2. Ta’sir metodologiyasini o‘zgartirish tamoyili (Demokratik yondashuv). Ikkinchi tamoyil qo‘llab-quvvatlash tizimi majburlash va zo‘rlash kabi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatish usullaridan voz kechib, rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlash va pedagogning istagini bildirish tizimiga o‘tishni talab qiladi. Bu pedagogik xodimlarga o‘z kasbiy taqdirini belgilashda teng imkoniyatlar berish orqali qaror qabul qilish jarayonini liberallashtiradi.

3. Metodologik asoslash tamoyili. Uchinchi konseptual qoida qo‘llab-quvvatlashning amaliy vositalari va usullarini ishlab chiqish uchun mustahkam nazariy asos yaratishga tayanadi. Bunday asos sifatida shaxsni professional shakllantirish qonuniyatlari, mexanizmlari va maxsus tashkil etilgan ta’lim muhiti sharoitida pedagogning o‘z-o‘zini rivojlantirish qonuniyatlari xizmat qilishi [8] mumkin.

Psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash metodining markazida shaxsga yo‘naltirilgan muammoli yondashuv turadi. Bu yondashuv har bir pedagogning ichki salohiyati, uning ijtimoiy atrofi tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘llab-quvvatlash hamda kasbiy rivojlanish jarayonida uchrashi mumkin bo‘lgan tipik muammolarni samarali hal etish usullarini o‘zlashtirishga tayanadi.

Bizning ushbu tahlilimiz metodologiyasiga muvofiq, psixologik-pedagogik hamrohlikning fundamental yo‘nalishlari turkumiga quyidagi yo‘nalishlar kiritiladi: psixologik profilaktika, rivojlantiruvchi diagnostika, professional maslahat berish (konsalting), psixologik korreksiya (tuzatish), psixoterapiya, shuningdek, pedagogik ma’rifat va ta’lim faoliyatlari.

Psixologik profilaktika – shaxsning to‘laqonli ijtimoiy va kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, ehtimoliy inqiroz holatlari hamda shaxsiy yoki shaxslararo ziddiyatlarning oldini olish, shuningdek, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni inobatga olgan holda o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini yaxshilashga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi. Psixoprofilaktikaning bosh maqsadi – pedagogning inqirozli vaziyatlarga professional va samarali tarzda munosabat bildirishiga ko‘maklashadigan zarur psixologik shart-sharoitlarni yaratishdir.

Psixoprofilaktikaning mohiyati psixologik-pedagogik texnologiyalar yordamida psixologik zo‘riqish, stress va jarohatlarni keltirib chiqaruvchi vaziyatlar va omillarning oldini olish uchun sharoitlar yaratish hamda ularga nisbatan psixologik bardoshlikni (ta’sirlanmaslikni) oshirishdan iborat.

Rivojlantiruvchi psixodiagnostika shundan iboratki, individual-psixologik xususiyatlarni tashxislash natijalarini tahlil qilish va ularni o‘qituvchiga yetkazish orqali uning mavjud psixologik bilimlarini faollashtirish, shuningdek, psixologik kompetensiyasini kengaytirish amalga oshiriladi. Tashxisning individual ko‘rsatkichlari o‘qituvchi uchun katta subyektiv ahamiyatga ega bo‘lgani sababli, tashxis qilinayotgan psixologik xususiyatlarning mohiyatini tushuntirish alohida shaxsiy ahamiyat kasb etadi. Psixologik bilimlar faqat o‘zlashtiriladigan ma’lumot sifatida emas, balki amalda qo‘llaniladigan resurs sifatida egallanadi; natijada o‘qituvchida o‘z-o‘zini anglashga oid kompetensiya shakllanib, uning kasbiy-psixologik salohiyatini ro‘yobga chiqaruvchi muhim omilga aylanadi.

Psixologik maslahat o‘qituvchiga o‘zining kasbiy stress darajasini baholash, hissiy barqarorlikka erishish va “kuyish sindromi”ning oldini olishda yordam beradigan eng samarali metodlardan biridir. U pedagogning o‘zini to‘g‘ri anglash, kasbiy faoliyatidagi inqirozli vaziyatlarni yengib o‘tishda ongli qarorlar qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Olib borilgan keng qamrovli nazariy tahlil va asosiy tadqiqotlar natijalarini o‘rganib chiqish shundan dalolat beradiki, maktab pedagoglarining uzluksiz kasbiy rivojlanishini samarali boshqarish masalasi zamonaviy ta’lim tizimini tubdan modernizatsiya qilishning eng ustuvor va hal etilishi lozim bo‘lgan ilmiy-metodologik muammolaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, pedagoglarga mo‘ljallangan psixologik-pedagogik yordam tizimini samarali yo‘lga qo‘yish uchun, eng avvalo, o‘qituvchilarning individual ehtiyojlari hamda ularning shaxsiy va kasbiy maqsadlarini hisobga olish muhimdir. Bunday tizimning bosh maqsadi – pedagoglarga kasbiy faoliyatda uchraydigan qiyinchiliklarni yengishda ko‘mak berish, ularning kasbiy imkoniyatlarini yuqori darajada ishga solish va natijada ta’lim jarayonining umumiy samaradorligini oshirishdan iboratdir. Shu sababli, uzluksizlik, tizimli yondashuv va shaxsga yo‘naltirilganlik kabi asosiy tamoyillarga tayanadigan boshqaruv modeli o‘qituvchilarning barqaror va sifatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xorijiy va mahalliy tajribalar asosida olib borilgan chuqur tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish jarayonida psixologik yordamning turli shakllari – diagnostika, maslahat, trening hamda zarurat bo‘lganda psixokorreksiya kabi metodlarning kompleks va samarali qo‘llanishi muhim o‘rin tutadi. Bugungi sharoitda pedagoglar faqat bilim yetkazuvchi shaxs sifatida emas, balki o‘z kasbiy o‘sishini muntazam yangilab boruvchi va o‘z-o‘zini boshqarishga qodir mutaxassis sifatida shakllanishi uchun psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning yangi konseptual-metodologik asoslarini ishlab chiqish zarur bo‘lib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Калацкая Н.Н. Теоретический анализ подходов к оценке педагогической деятельности учителя. ВЕСТНИК ТГГПУ. 2009. №2-3(17-18)

2. Маслоу А. Дальние пределы человеческой психики. – СПб.: Питер, 1997. – 519-521 с.

3. Глуханюк Н.С. Психология профессионализации педагога / Н.С.Глуханюк. – Екатеринбург: Изд-во Рос. гос. проф.-пед. ун-та, 2000. – 365-370 с.

4. Казакова Е.И. Комплексное сопровождение развития учащихся в образовательном процессе (аналитические материалы). – СПб.,1998. – 98-100 с.

5. Битянова М.Р. Организация психологической работы в школе. – М.: Совершенство, 1998. – 298 с.

6. Овчарова Р.В. Практическая психология образования: учеб. пособие для студ. психол. факультетов университетов. – М.: Издательский центр "Академия", 2003. – 448 с.

7. Зеер Э.Ф. Психология профессионального образования: уч. пособие. – 2-е изд. – М.: Изд-во МПСИ; Воронеж: Изд-во НПО "МОДЭК". 2003. – 263 с.

8. Факторы личностно-профессион ального развития педагога в условиях цифровизации образования (Л.В.Лидак, журнал "Психопедагогика в правоохранительных органах", том 29, N 1 (96), январь-март 2024)

9. Адлер А. Практика и теория индивидуальной психологии. М.: Фонд за экономическую грамотность, 1995. – 296 с.

10. Ш.С. Шарипова.Инновационная образовательная среда и психолого- педагогическое взаимодействие как факторы развития профессиональных компетенций преподавателя высшей школы. EDN YSUQOY https://www.doi.org/10.33910/2686-9527-2023-5-3-452-457.

11. Современное образование как открытая система (под ред. Н.Г. Ничкало, Г.Н. Филонова, О.В. Суходольской-Кулешов ой). – "Институт научной и педагогической информации РАО, "ЮРКОМПАНИ", 2012.